

BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA

Egamov Oxunjon Saidovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti Musiqa ta'limi va san'at
mutaxassisligi I bosqich magistranti

Nurullayev F.G.

p.f.f.d (PhD) dotsent, BuxDPI

Annotatsiya: Folklor qo'shiqlari, shu jumladan, Buxoro folklor qo'shiqlari xalqning ijodiy ma'suli sifatida shakllanib, avloddan avlodga, davrdan davrga o'tib iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topib, o'zbek xalq poetik-musiqiy ijodi ko'rinishini tashkil etgan.

Kalit so'zlar: Folklor, Buxoro, xalq, ijod, avloddan avlodga, qo'shiqlar, tarixiy, iste'dod

Buxoro folklor qo'shiqlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmagan, albatta. Xalq tomonidan va xalqning iste'dodli qo'shiq ijrochi vakillari tomonidan qayta ishlanib, turli o'zgarishlar kiritilgan. Yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarix sharoitiga, jamiyatga moslashib kelgan hamda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlangan.

Buxoro folklor qo'shiqchilik san'ati asoslari uzoq o'tmishda yashab o'tgan xalqimizning estetik tafakuriga borib taqaladi. O'tmishda sayyohlar va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi yozma va og'zaki yodgorliklari folklor qo'shiqchilik san'ati uchun muhimdir. Manbalarda yozilishicha folklor qo'shiqlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar X1 asrdan boshlab amalga oshirilgan.

Buxoro folklor qo'shiqlari mehnatkash xalqning, bolalar hayoti va turmush tarzini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi umumiyl tushunchalarini, ijtimoiy-

tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik hamda musiqiy qarashlarini o‘zida mujassamlantirgan. Bularning barchasi Buxoro folklor qo‘sishqlari mazmuni va g‘oyasining chuqur xalqchiligin ko‘rsatadi. Qo‘sishqlardagi xalqchilikning asosini uning progressiv mazmun-mohiyati tashkil qiladi.

Buxoro folklor qo‘sishqlari o‘z xususiyatiga ko‘ra o‘zbek xalqining badiiy-musiqiy ijodi sifatida asrlar davomida yaratilgan jamoaning ijod ma’sulidir. Chunki Buxoro folklor qo‘sishqlari boshqa folklor asarlari kabi bir kishi tomonidag emas, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga kelgan va jamoa tomonidan ijro etib kelingan. Ikkinchi tomonidan qaralganda esa Buxoro folklor qo‘sishqlarining ba’zi birlari iste’dodli kishilar tomonidan yaratilib, o‘z qabilasi, urug‘i odatlari, e’tiqodlari, orzu-istiklari, tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari aks ettirilgan. Qabila va urug‘ a’zolariga ma’qul tushgan shu xildagi qo‘sishqlar og‘izdan-og‘izga o‘tib, jamoa ijodiga aylangan. Qo‘sishqlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, sayqal topib xalqning folklor mulkiga aylangan. Yakka ijodkor, qo‘sishq ijrochisi qanchalik iste’dodli bo‘lmash, jamoa ijodi va ijrosining an’alariga bo‘ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan.

O‘zbek folklorshunosligi, jumladan, Buxoro folklor qo‘sishq san’atining bir qator materiallari xususidagi qarashlar, qimmatli ma’lumotlar o‘rta asr tarixchilari Hamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma’sudiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ko‘zga tashlanadai. “Avesto”, “Bexustun”, “Bundaxishi”, “Denkard” kabi yozma yodgorliklarda og‘zaki adabiyotning ba’zi bir namunalari o‘rin olgan. Turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodini avloddan avlodga yetkazishda alohida o‘rin tutadigan olimlarimizdan biri, O‘rta O‘syo xalqlarining atoqli farzandi Maxmud Qoshg‘ariy esa o‘zining mashhur lingivistik “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimgi qo‘sishq, lirik she’r va maqollardan turli namunalar beradi. Manbalarda yozilishicha Maxmud Qoshg‘ariy yuqori Chindan boshlab to Movaraunnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan hududni birma-bir kezib chiqnb

xalqni yashash tarzi, kasb-kori, urf-odatlari, madaniyati va san'atini o'rgangan. To'plagan manbalarida mehnat qo'shiqlari xususida to'xtalib: mehnat qo'shiqlarida mehnat bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, kishilarning mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirishga, hordiq chiqarishga, yoshlarni mehnatga ko'niktirishga va o'rgatishga yordam berayotganligini ifodalaydi.

Umuman olganda, o'zbek folklor qo'shiqchilik san'ati singari Buxoro folklor qo'shiqchiligi ham uzoq tarixdan e'tiboran xalq ijodiyotiga kirib kelganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek xalq og'zaki ijodining musiqa san'ati va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab va boshqalar nomi bilan yaratiladi. Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan "Abo Muslim" kitobi X11 asrda yaratilgan. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri bo'lsa-da, kichik shaklidagi folklor qo'shiqlarining yuzaga kelishiga ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu xildagi holatlar Buxoro folklor qo'shiq sanatining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan deb o'ylaymiz.

Agar ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan ishongan deb aytadigan bo'lsak, unda xalq o'zining eng noyob folklor janridagi qo'shiqlarini so'z mo'jizasi va musiqaning sehirli ohangi bilan bunyod etgan. Shu xildagi bunyodkorlik Buxoroning "Mavrigi", "Buxorcha" va bolalar, yoshlar folklor qo'shiqlarida ham o'z ifodasini topgan. Ya'ni, kattalar ijodkorligi bilan bir qatorda bolalar, yoshlar faoliyatida ham ijodiy ishlar shakllanib, rivojlanib kelgan. Buxoro bolalar folklori aynan bolalar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini yaratishda kattalar ham bolalar ham birgalikda, baravar hissa

qo'shgan. Bolalar folklor qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi fazilatlarni – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga saoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiatning salbiy hodisalariga qarshi kurashish va ularni yengish malakasini tarbiyalaydi. Kattalar kichik yoshdagi bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachoq, qiziqmachoq singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Buxoro folklor qo'shiqlari namunalarini o'rghanish shundan dalolat beradi-ki, kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo'shiq bilan bezaganlar. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, folklor ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan maktab yoshidagi bolalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiqlaridir. Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kattalarning hamda bolalarning mehnat jarayoni bilan bog'liqdir. Bolalar dehqonlarni, hunarmandlarni ishlab turib qo'shiq aytganlarini ko'rgan, eshitgan, zavqlanib o'zлari ham she'rlar to'qigan va kuyga solib ijro etib yurgan. Qo'shiqning kattalar mehnatlarini yengillatganligi, ayrim so'zлari, undov nidolari ko'pchilikni baravar harakat qilishga da'vat etgan holatlari bolalar folklor qo'shiqlarida ham ko'zga tashlanadi. Shu sababdan ko'p qo'shiqlardagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqt-vaqt bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq va mammunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Kattalar folklor qo'shiqlari, shuningdek, bolalar folklor qo'shiqlari ichida mavusmiy qo'shiqlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ma'lumki, bahor fasli kelishi bilan bolalar o'yinlarini boshlab yuboradilar. O'g'il bolalar osmonga varrak uchiradilar. Qiz bolalar sochlariiga bargak taqadilar. Bolalar tol chiviqlarini qo'l bilan uqalab, ehtiyyotkorlik bilan po'stini shilib, o'zlariga sibizg'alar yasaydilar. Bahor darakchisi "Boychechak" gulini ko'rib zavqlanadilar, qo'shiq kuylaydilar. "Chitti gul" esa ularni yanada zavqlantiradi, ilhomlantiradi, o'ynab turib qo'shiq kuylashga chorlaydi.

Professor O.Safarov “Chitti gul” haqida so‘z yuritib “chitti gul” iborasi aslida “chiqdi gul” bo‘lganli, lekin bolalar talaffuzida “chiqdi” so‘zi “chitti”ga aylanib qolganligini yozadi. “Chitti gul” o‘yin-qo‘sinq shaklida ijro etiladi. Qo‘sinq ijrosi o‘yin harakatlari bilan uyg‘unlashib o‘ziga xos ijodiy manzarani hosil qiladi. Qo‘sinq ohangining ritmi o‘yinga o‘lchov mezonni bo‘lib, qo‘sinqning mazmunini boyitadi, bolalarga kuch, g‘ayrat, harakat bag‘ishlaydi. Bolalar bir vaqtning o‘zida o‘yindan ham ma’naviy, ham jismoniy, ham estetik jihatdan rohatlanadilar. “Chidti gul” o‘yin-qo‘sinq‘ini qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, yana urushtirib, qo‘sinq aytadilar. “Chittigulo- chittigul”, deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. Qo’llari ma’lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli ohang kasb etadi. “Hay-yu, chittigul, hay-yu chittigul” deyilganda qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar.

Bolalarning mavsusmiy folklor qo‘sinqlar turkumiga tegishli “Laylak keldi, yoz bo‘ldi”, “Oftob chiqdi olamga” va boshqa qo‘sinqlarni ham misol qilib aytish mumkin. Bolalar yoz faslida “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” qo‘sinq‘ini kuproq aytib yuradilar. Bu qo‘sinq kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, kuz-qish mavsumida boshqa issiq yurtlarga ketib qolgan qushlarning qaytib kelganligidan, ariqlardan suvlarni to‘liq oqishidan, bolalar ko‘nglida quvonch uyg‘onadi. “Oftob chiqdi olamga” qo‘sinq‘i esa oftobning chiqishi bilan bolalar, kattalar quvonchiga quvonch, shodlik bag‘ishlaydi. Qo‘sinq bora-bora maishiy tus oladi. Ya’ni bolalar yangi hosildan olingan bug‘doylardan un qilinib, tandirlarda non yopilishi va to‘yib non yejish imkonini hosil bo‘lganidan zavqlanib, quvonib, shodlanib qo‘sinqni kulaydilar. She’r voqeasi qisqa bo‘lib, bola xolasidan kulcha so‘raydi, xolasasi esa jiyidan o‘tin terb kel, deydi. Jiyani o‘tin terib keladi, xola tandirga o‘t yoqib, kulcha yopadi. Afsuski, pishgan kulchadan o‘tin termagan xolasining o‘g‘li yog‘liq, butun kulcha oladi, jiyani esa, “shuncha ishlasada”, atigi quyuq olib qoladi.

Bu o‘rinda bola “qornidan ko‘ra qadriga” xafa. Qo‘shiqning aytilishi boisi shunda bo‘lsa kerak. Bu qo‘shiq deyarli hamma viloyat, tumanlarda aytiladigan qo‘shiq. Uning elementlari mahalliy til, sheva, sharoit, odatlarga qarab o‘zgaraveradi.

Buxoro folklor qo‘shiqlari faqatgina an’anaviy ijrochilik

namunalari bo‘lib qolmay, ayni paytda xalq o‘rtasida keng tarqalgan, abadiy voqelikka mansub ijod va san’at deb baholanmog‘i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshmatov O‘. Folklor qo‘shiqlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2003. – 134 b.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. (O‘quv qo‘llanma). T.: “Fan”, 2008. – 293 b.
3. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852.
4. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
6. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagি bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4,ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.

9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.
17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.

20. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. **Nurillaev Farrukh Gayullaevich-** The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.